



UDK: 801.8.1292

Gulhoyo XAITOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti, Amaliy ingliz tili kafedrası o'qituvchisi
E-mail: xaitovagulhoyo@gmail.com

PhD N.Madalov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YAQIN – UZOQ" OPPOZITSIYASINING IFODALANISHIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi xalq maqollari va matallarida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasining ifodalanishi tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning madaniy-falsafiy, semantik va kommunikativ jihatlarini ochib beriladi. Mavzu yuzasidan olingan misollar tahlili orqali paremiologik birliklarning mazmun-mohiyati hamda ularda aks etgan xalq tafakkuri tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Paremiologiya, oppozitsiya, yaqin, uzoq, semantika, kommunikatsiya, madaniyat, falsafa.

РОЛЬ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ВЫРАЖЕНИИ ОППОЗИЦИИ «БЛИЗКИЙ – ДАЛЁКИЙ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье анализируется выражение оппозиции «близкий – далёкий» в английских и узбекских народных пословицах и поговорках. Раскрываются культурно-философские, семантические и коммуникативные аспекты паремиологических единиц. На примерах исследуются содержание и сущность паремиологических единиц, а также отражённое в них народное мышление.

Ключевые слова: Паремология, оппозиция, близкий, далёкий, семантика, коммуникация, культура, философия.

THE ROLE OF PAREMIOLOGICAL UNITS IN EXPRESSING THE OPPOSITION "NEAR – FAR" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the expression of the opposition "near – far" in English and Uzbek folk proverbs and sayings. It reveals the cultural-philosophical, semantic, and communicative aspects of paremiological units. Through the analysis of selected examples, the article explores the essence of these paremiological units and the folk wisdom reflected in them.

Key words: Paremiology, opposition, near, far, semantics, communication, culture, philosophy.

Kirish. O'zbek xalq maqollari va matallari insoniyatning ko'p asrlik tajribalarini, milliy tafakkur va qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi bebaho manbadir. Ushbu paremiologik birliklar xalqning tarixiy rivojlanishi davomida to'plangan bilimlarni, falsafiy qarashlarni, axloqiy-ijtimoiy normalarni sodda va ixcham shaklda ifodalaydi. Ayniqsa, maqollar va matallarda tez-tez uchraydigan oppozitsiyalar, jumladan, «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi o'zbek xalqining dunyoqarashi, madaniyati va hayot falsafasini ifoda etuvchi muhim vositadir. Bu oppozitsiya orqali xalqning turli hodisalarga bo'lgan munosabati, insonlararo munosabatlarga oid qarashlari va qadriyatlarini namoyon bo'ladi.

Ingliz xalq maqollari va matallari ham shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lib, ular ingliz xalqining uzoq tarixiy tajribalarini va madaniyatini ifodalaydi. Ingliz paremiologik birliklarida ham «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi faol ifodalanib, insonlarning yaqinlik va uzoqlik tushunchalariga bo'lgan munosabatlari, kundalik hayot va amaliyotdagi tanlovlari, hamda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarini yoritiladi. Shunday qilib, o'zbek va ingliz xalqlari paremiologik birliklari orqali insoniyatning madaniy xilma-xilligini hamda umumiy qadriyatlarini birgalikda aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz va o'zbek tillarida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasining paremiologik birliklarda ifodalanishi mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Bu oppozitsiya orqali har ikki tilda masofa, munosabatlar va boshqa ko'plab tushunchalar ifodalanadi. Mazkur oppozitsiyaning paremiologik birliklarda aks etishi milliy madaniyat, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarni tadqiq qilish bo'yicha turli ilmiy manbalarda lingvistik, semantik va madaniy jihatlar o'rganilgan. Ushbu mavzu xalq og'zaki ijodi, tilshunoslik va tarjima nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, maqol va matallarning kelib chiqishi, qo'llanilishi hamda

madaniyatlararo farqlari haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

O'zbekistonda maqol va matallar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar orasida A.Madvaliyev va M.Jo'rayevning "O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari" nomli tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda o'zbek maqollarining morfologik va semantik jihatlarini chuqur tahlil qilinib, ularning xalq turmush tarzi va mentaliteti bilan bog'liqligi ilmiy asoslangan [2].

G.Rahimov tomonidan yozilgan "O'zbek maqollarining tarjima muammolari" (2018) monografiyasida esa o'zbek maqollarining ingliz tiliga tarjima qilinishidagi muammolar tahlil etilgan. Muallif bevosita tarjima qilingan maqollarining semantik jihatdan asl ma'nosini yo'qotishini ta'kidlab, tarjima jarayonida ekvivalent yoki mos ifodalar topish muhimligini asoslab beradi [3].

Ingliz tilidagi paremiologik birliklarni tadqiq qilishda R.Webster tomonidan yozilgan "English Proverbs and Their Origins" asari ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur asarda ingliz maqollarining tarixiy rivojlanishi, ularning qo'llanish doirasi va zamonaviy ingliz tilidagi ishlatilish xususiyatlari batafsil yoritiladi. Muallif maqollarni madaniy kontekst bilan bog'lagan holda, ularning hayotiy tajriba orqali shakllanishini ilmiy jihatdan tahlil qiladi [4].

Bundan tashqari, Xalqaro maqollar jamiyati (International Proverb Society) tomonidan nashr etilgan ilmiy maqolalar to'plamlarida ingliz va boshqa tillardagi maqollar qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, W. Mieder tomonidan yozilgan "Proverbs: A Handbook" (2004) kitobida maqollarining umumiy xususiyatlari, ularning lingvistik va sotsiokultural jihatlarini keng qamrovli tarzda o'rganilgan [3].

Qiyosiy tahlil sohasida yana bir muhim ilmiy ish M. Karimovanning "O'zbek va ingliz maqollari: qiyosiy tahlil" tadqiqotidir. Ushbu tadqiqotda ikki tilga mansub maqollar semantik jihatdan guruhlariga ajratilib, ularning umumiy va farqli

jihatlarini keng qamrovli tahlil qilingan. Muallif o'zbek va ingliz maqollarida mehnat, bilim, hayotiy tajriba, odob-axloq kabi mavzulardagi umumiy va milliy xususiyatlarni chuqur yoritib bergan [1].

Umuman aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi paremiologik birliklarni tadqiq qilishga bag'ishlangan mavjud ilmiy ishlar ushbu sohaning ilmiy dolzarbligini va ahamiyatini ko'rsatib beradi. Ayniqsa, "yaqin – uzoq" oppozitsiyasini ifodalovchi maqollarning tarjima va lingvokulturologik tahlili bo'yicha kelgusida yanada chuqur ilmiy izlanishlarni amalga oshirish zaruriyati ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasining paremiologik birliklarda aks etishini qiyosiy tahlil qilish metodologiyasiga asoslanadi. Metodologiya quyidagi jihatlarini qamrab oladi: lingvokulturologik tahlil, semantik tahlil, kommunikativ tahlil, qiyosiy (komparativ) metod.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilining paremiologik birliklarida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi turli mazmunlarda qo'llanadi. Quyidagi misollar orqali tahlil qilamiz:

Yaqin qo'shni uzoq qarindoshdan yaxshi. Ushbu maqolda geografik yaqinlikning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri ifodalanib, xalqning qo'shnihilik munosabatlariga katta ahamiyat berishi ko'rsatilgan. Geografik masofaning qisqaligi ijtimoiy birlik va birdamlik uchun zamin bo'lishini ko'rsatadi.

Uzoqdagi suvdan yaqindagi cho'p afzal. Mazkur paremiologik birlik orqali xalq uzoq vaqtdagi va katta kuch talab qiluvchi imkoniyatlar o'rniga, yaqindagi oddiy imkoniyatni afzal ko'radi. Bu maqol xalq tafakkurida amaliyot va samaradorlikni ustuvor qo'yadi.

Yaqindagi dushman uzoqdagi do'stdan xavfliroq. Maqolda psixologik masofaning geografik masofadan ahamiyatliroq ekanligi ko'rsatilgan. Xalq falsafasida ishonch va xavfsizlik masalasi yaqin-uzoq tushunchalari bilan bog'liq ravishda yoritiladi. Uzoqni ko'zlagan yaqindan ayrilar. Mazkur birlik orqali xalq uzoqdagi xayoliy yoki noaniq manfaatlar yo'lida mavjud imkoniyatlarni qo'ldan boy berish xavfi haqida ogohlantiradi. Bu orqali xalqning ehtiyotkorlik va oqilonalik tamoyillari ifoda etiladi.

Yaqinni hurmat qilmagan uzoqdan izzat ko'rmas. Maqolda insonlarning ijtimoiy munosabatlardagi xulq-atvori tahlil qilinib, axloqiy meyorlar va hurmat-ehтиromga chaqiruv mavjudligi qayd etiladi. Bu orqali xalqning axloqiy qadriyatlari targ'ib etiladi.

Ingliz tilida «yaqin – uzoq» oppozitsiyasini ifodalovchi paremiologik birliklar turli tarixiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarning muhim jihatlarini yoritadi. Ushbu maqollar asosan «yaqin – uzoq» masofasini nafaqat geografik, balki insonlar o'rtasidagi psixologik, hissiy va ijtimoiy masofani ham ko'rsatishga xizmat qiladi. Ingliz tili dunyoning ko'plab madaniyatlariga ta'sir o'tkaza boshlagan zamonaviy davrda bu kabi maqollar xalqlarning turmush tarzi, qadriyatlari va tafakkurida «yaqinlikning real ahamiyati hamda «uzoq»ning ehtimoliy xavflari yoki foyda-ziyonlarini aks ettiradi.

Quyida ingliz tilida «yaqin-uzoq» oppozitsiyasini ifodalovchi ayrim maqollarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Asosiy diqqat «yaqin» va «uzoq» tushunchalarining nafaqat makoniy, balki ijtimoiy, ma'naviy va psixologik ma'nolarda qanday aks etishiga qaratiladi.

Better is a neighbor that is near than a brother far off – Mazmuni: Yaqindagi qo'shni – uzoqdagi ukadan (yoki qarindoshdan) yaxshiroq. Ushbu maqolda «near» so'zi geografik masofaning qisqaligini anglatadi. Yaqin qo'shni har qanday vaziyatda tezkor yordam berishi mumkinligi bilan qadrlanadi. «Brother far off» iborasida masofa nafaqat makoniy, balki munosabatlar yaqinligining o'rnini ham bildiradi. YA'ni, qancha

qarindosh bo'lmasin, uzoqda bo'lsa, real yordam bera olmaydi. Mazkur maqol odamlar o'rtasida o'zaro ko'mak va birdamlikni qadrlash, yaqin atrofda bo'lgan kishilar bilan mustahkam rishtalar o'rnatish muhimligini uqtiradi.

Out of sight, out of mind. O'zbek tilida ushbu maqola «Ko'zdan uzoq – ko'ngildan uzoq» maqoliga ekvivalent bo'la oladi. Bu maqolda «yaqin-uzoq» oppozitsiyasining psixologik jihati ko'rinadi. Agar kimdir yoki nimadir nazardan chetda bo'lsa, u haqda unutish osonroq kechadi. Ingliz madaniyatida shaxsiy hayotga bo'lgan e'tibor kuchli. Agar kimdir tez-tez ko'zga tashlanmasa (ya'ni yaqin aloqada bo'lmasa), u bilan bog'liq xotiralar zaiflashadi.

A bird in the hand is worth two in the bush – «Qo'ldagi qush – butadagi ikki qushdan afzal.» Bu maqolda «near» yoki «far» so'zlari to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagan bo'lsa-da, mazmunan mavjud imkoniyat («qo'ldagi qush») va uzoqdagi (realizatsiyasi gumon bo'lgan) imkoniyat («butadagi ikki qush») qarama-qarshiligi aks etadi. Ingliz xalq tafakkurida real va amaliy yordam beradigan «yaqin» imkoniyat (qo'ldagi qush) ko'proq qadrlanadi. Maqsad yoki manba uzoqda bo'lsa (butadagi qushlar), uning haqiqatda qo'lga kiritilishi dargumon. Ushbu maqol o'zbek tilidagi «Uzoqdagi suvdan yaqindagi cho'p afzal» maqoliga ma'nodosh bo'lib, har ikki madaniyatda ham «yaqin» va «uzoq» tushunchasi amaliy qadriyat orqali ifodalangan.

Far from eye, far from heart – «Ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq.» Ushbu maqol «Out of sight, out of mind» iborasi bilan mazmunan uyg'un. Bunda «far from eye» jismoniy uzoqlikni, «far from heart» esa ruhiy uzoqlikni anglatadi. Masofa oshgani sayin, insonlar o'rtasidagi his-tuyg'ular, e'tibor, xotiralar ham susayishi mumkinligi mazmun qilinadi. Ingliz madaniyatida bunday so'zbirikmalar hayotiy tajriba, hissiy munosabatlarning vaqt va makon ta'sirida o'zgarishini keng ifodalaydi. Shunday bo'lsa-da, bu universal mazmundir, chunki boshqa tillarda ham shunga o'xshash maqollar topiladi.

Charity begins at home – Xayriya (muruvvat, yordam) avvalo uy(da)dan boshlanadi. Ushbu maqolda ham «yaqin» tushunchasi oilaga, o'z atrofidagi insonlarga nisbatan yordam va g'amxo'rlik qilish zarurligi bilan izohlanadi. «Far» so'zi to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagan bo'lsa-da, «boshqalarga yordamdan avval yaqinlaringga yordam qil» degan xulosa «yaqin-uzoq» kategoriyasi orqali tushuniladi. Maqol hayotiy qadriyatlarni ustuvor qo'yishga undaydi: inson avvalo o'zining eng yaqinlari, oilasi yoki jamoasi oldidagi mas'uliyatini ado etishi kerak, shundan keyingina kengroq doirada xayriya qilishga o'tishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa «Yaqin – uzoq» oppozitsiyasi o'zbek xalq maqol va matallarida boy semantik imkoniyatlar orqali ifodalangan bo'lib, ularda xalqning madaniy-falsafiy dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlari ochib beriladi. Ushbu paremiologik birliklar orqali insonlarning turli xil munosabatlariga oid qarashlar aks ettirilgan. Shu sababli, paremiologik birliklar xalq tafakkuri va madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi [5].

Ushbu oppozitsiyaning paremiologik birliklarda aks etishi milliy madaniyat, urf-odatlar va xalqning dunyoqarashini aks ettiradi. Shuningdek, «yaqin – uzoq» oppozitsiyasi orqali insonlarning kundalik hayotdagi qarorlari, axloqiy meyorlari hamda ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi maqol va matallarda bu oppozitsiyaning aks etishi, bir tomondan, ikki xalq o'rtasidagi madaniy va til o'ziga xoslik va farqlarini namoyon qilsa, boshqa tomondan, umumiy insoniy qadriyatlarni va tajribalarni ifodalovchi universal tamoyillarni ochib beradi. Shu bois, bu mavzuda olib boriladigan qiyosiy tahlillar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki madaniyatlararo muloqot va madaniyatlar o'rtasidagi mushtaraklik va farqlarni aniqlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimova M. O'zbek va ingliz maqollari: qiyosiy tahlil. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 215 b.
2. Madvaliyev A., Jo'rayev M. O'zbek maqollari va ularning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.
3. Rahimov G. O'zbek maqollarining tarjima muammolari. – Toshkent: Sharq, 2018. – 176 b.
4. Webster, R. English Proverbs and Their Origins. – London: Oxford University Press, 2015. – 265 p.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.